



## PECULIAR ASPECTS OF PALACE RECEPTION CEREMONIES IN KHIVA KHANATE, ORGANIZATION PROCEDURES, DUTIES OF PALACE OFFICIALS

*Jurabek Abdurakhmonovich Polvonov*

*Lecturer*

*Tashkent military-academic lyceum "School of Temurbeks"*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [polnovovjurabek@mail.ru](mailto:polnovovjurabek@mail.ru)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** 16th century, 1512, 32 bells, 1804-1920s, Muhammad Rahimkhan I, 15 governorships, 1578, Russia, 5 gold, N.Muravev, V.V.Barthold, 19th century, 1873

**Abstract:** This article tries to reveal, based on the sources, the specific aspects of the reception ceremonies of the Khiva Khanate, the organization procedures, and the tasks of the palace officials.

**Received:** 20.06.23

**Accepted:** 22.06.23

**Published:** 24.06.23

## XIVA XONLIGIDA SAROY-QABUL MAROSIMLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI, TASHKIL ETISH TARTIBLARI, SAROY AMALDORLARINING VAZIFALARI

*Jurabek Abdurahmonovich Polvonov*

*o'qituvchi*

*Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [polvonovjurabek@mail.ru](mailto:polvonovjurabek@mail.ru)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** XVI asr, 1512-yil, 32 ta, qo'ng'irotlar, 1804-1920-yillar, Muhammad Rahimxon I, 15 ta hokimlik, 1578 ta, Rossiya, 5 tilla, N.Muravev, V.V.Bartold, XIX asrda, 1873 yilda

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Xiva xonligida saroy-qabul marosimlarining o'ziga xos jihatlari, tashkil etish tartiblari, saroy amaldorlarining vazifalari manbalar asosida ochib berishga harakat qilingan.

## ОСОБЕННОСТИ ДВОРЦОВЫХ ПРИЕМОВ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ, ПОРЯДОК ОРГАНИЗАЦИИ, ОБЯЗАННОСТИ ДВОРЦОВЫХ ЧИНОВНИКОВ

*Джурабек Абдурахмонович Полвонов*

*преподаватель*

*Ташкентский военно-академический лицей «Школа темурбеков»*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** 16 век, 1512 г., 32 колокола, 1804-1920-е гг., Мухаммад Рахимхан I, 15 наместничества, 1578 г., Россия, 5 золотых, Н.Муравьев, В.В.Бартхольд, 19 век, 1873 г.

**Аннотация:** В данной статье делается попытка раскрыть на основе источников особенности приемных церемоний Хивинского ханства, процедуры организации и задачи дворцовых чиновников.

---

**KIRISH**

Xiva xonligi XVI asrning boshlarida tashkil topib, 1920-yilgacha mavjud edi. Bu davlat XVI-XX asrlarda Turkistonning tarixiy-siyosiy, xo‘jalik va madaniy hayotida katta o‘rin tutgan.

Xiva xonligining asoschisi shayboniylardan bo‘lgan Elbarsxon (1512-yil) hisoblanadi. Xiva xonligida joriy qilingan har xil unvon va mansablar, vazifa va martabalar hamda amallarni o‘rganish O‘zbekiston mustaqil davlat bo‘lgan bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi.

**ASOSIY QISM**

O‘zbek davlatchiligi tarixida davlat boshqaruvining monarxiya tipi nisbatan keng tarqalgan edi. Bunda davlat boshlig‘i cheklanmagan huquqqa ega bo‘lgan yakka hukmdor bo‘lib, uning mansabi va huquqlari avloddan-avlodga o‘tgan. Uning atrofidagi mansabdorlar ham hukmdorga yaqin kishilar, qarindosh, urug‘doshlardan tayinlangan bo‘lib, ularning mansab va huquqlari ham vafotlaridan keyin o‘z avlodlariga meros sifatida qoldirilgan. Bunday boshqaruv tartibini dastlabki e‘tiborga molik islohat Abulg‘ozixon tomonidan amalga oshirilgan. Abulg‘ozixon hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab asosiy e‘tiborni davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. Xiva tarixchisi Munisning ko‘rsatishicha Abulg‘ozixon ma‘muriy islohot o‘tkazib, xonlikning markaziy boshqaruv tizimini batamom yangidan tashkil etdi. Ya‘ni saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlarini tashkil etib, ular tubandagicha taqsim etildi: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta noyib, 4 ta otaliq, 4 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta parvonachi, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig‘atoy inoqi, 1 ta vazir va yana 1 ta qo‘shbegi lavozimlaridir. Shu bilan Abulg‘ozi o‘zbeklarni va yerni aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma‘lum barqarorlikni vujudga keltirdi. Davlat hokimiyatini mustahkamlab olishi Abulg‘oziga ichki va tashqi siyosatni keng ko‘lamda amalga oshirish imkoniyatini berdi. Abulg‘ozixonning ichki siyosat borasida o‘tkazgan eng muhim tadbirlaridan yana biri o‘zbek qabilalarini butun vo‘ha bo‘ylab o‘troqlashtirish siyosati bo‘ldi. XVII-XVIII asrlarda bunday o‘troqlashtirish jarayoni Orol bo‘yidagi o‘zbeklar va Qoraqalpoq qabilalari orasida ham kuchaydi. O‘zbek va qoraqalpoqlarning ommaviy o‘troqlashuvi va ularning dehqonchilik hayotiga o‘ta borishi bilan Xorazmda sug‘oriladigan ekin maydonlarni o‘zlashtirish, yangi ariqlar chiqarish, yangi shahar va qishloqlar bunyod etish zaruriyatini tug‘dirdi. Shuningdek XVI asr 70 yillarida Amudaryo oqimining

o'zgarishi bilan Xorazmning shimoliy qismidagi shahar va qishloqlarda yuz bergan suv tanqisligi ham Abulg'ozixonni bu borada keskin choralar ko'rishga undayotgan edi. Darhaqiqat Abulg'ozixon va o'g'li Anushaxon zamonida yangi yerlarni o'zlashtirish va yangi ariqlar chiqarish sohasida shunday ulkan ishlar qilindiki, bu burilishlar Xorazmning bundan keyingi taraqqiysi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Abulg'ozixonning ana shu xayrli ishlarini o'g'li Anushaxon davom ettirdi.

Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi (1804-1920) davrida ham boshqaruv islohatlari o'tkazilgan. Bu borada Muhammad Rahimxon hukmronligi davri muhim o'rin tutadi. Muhammad Rahimxon I mamlakatni markazlashtirish, uni qudratli davlatga aylantirishda qattiqqo'llik bilan ish tutdi. Siyosiy tarqoqlikka harakat qilayotgan mahalliy hukmdorlarga qarshi beshafqat kurashdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida davlat hokimiyatining markazlashuvi, uning qudratli davlatga aylanishi ma'muriy boshqarishning takomillashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlarning amalga oshuviga ko'p jihatdan bog'liq edi. Ana shuni yaxshi his qilgan Muhammad Rahimxon bu borada qator islohotlarni amalga oshirdi.

Muhammad Rahimxon I xonlikning ma'muriy boshqarilish tartibini tubdan o'zgartirdi. Ilgari butun xonlik hududi juda ko'p sonli beklklar orqali idora qilinib kelinayotgan edi. Bekliklarda hukmdorlar o'z qo'llariga juda ko'p mol-mulklarni to'plab, mustaqil hokimlik tarafdori edilar. Ular markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortayotgan edilar. Shuni hisobga olib, Muhammad Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qildi va mamlakatni ma'muriy jihatdan 15 ta hokimlikka bo'ldi. Keyinchalik 26 ta hokimlik tashkil etildi. Viloyat hokimliklari esa, o'z navbatida, masjid-qavmlarga bo'lindi. Xonlikda jami 1578 ta masjid-qavm bo'lgan. Viloyat hokimliklari xon tomonidan tayinlangan hokimlar orqali boshqarilgan, masjid-qavmlarining qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayin etilgan. Hokim va mahalliy hukmdorlar el orasida hurmat-e'tibor qozongan kishilardan tayinlanadigan bo'ldi.

Xiva xonligini Rossiya bosib olgach (1873) ham ichki boshqaruvda bu tartib to'la saqlanib qolgan. Lekin aynan shu davrda, ma'lum ma'noda, davlat mansablariga tayinlash tartibida ba'zi o'zgarishlar, jumladan, poraxo'rlik nisbatan keng yoyila boshlagan.

Sovet davri tarixshunosligida aynan shu davrdagi ma'lumotlar ko'proq tahlil qilinib, butun oldingi davr davlatchiligimizda mansabga qo'yish tartibi tamoman qoralangan edi. Jumladan, Safarov Bobojonning "Xorazm tarixi" asari 8-bobi "Xonning amaldoru mansabdorlarni tayinlash tartibi" deb atalib, unda quyidagi ma'lumotlar bor: "Tamomi amaldoru mansabdorlarni xon o'zining xohlag'an odamlaridan tayin qiladur. Birovni mansabga qo'yishda, birovni mansabdan tushirishda hech birovdan maslahat so'ramaydur. Sipohi amaldorlarning 95 firosanti savodsiz, omi shaxslardan edi. Xon o'z ixtiyoricha amaldorlardan birlarin bo'shatib qamoqqa olib, mol-mulklarini musodara qilishqa huquqli edi. Butun mansabdorlar naqib orqali xon devoni hisobidan

o'tub, mirzaboshi tomonidan yorliq berilur edi. Mansabdorlar mansabning martabasiga qarab, oshoqi ishlardan besh yuz tillog'a qadarli amaldor tayinlanuvchidan yorliq puli olinur edi". Bu ma'lumotga oid fikrlar O'zbekiston SSR tarixi, Xorazm tarixiga oid kitoblarda ham ko'plab keltirilgan.

1819-1820 yillarida davomida Xivada bo'lgan N.Muravev yozishicha, Muhammad Rahimxon davrida Oliy kengash vujudga kelgan. Bu kengashga turli da'vo va jinoiy ishlarni ko'rish va qaror chiqarish huquqi berilgan va bunda xonning ixtiyori cheklangan bo'lgan. Ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo'lgan urug' oqsoqollari kengashi o'rniga, Muxammad Rahimxon davrida Oliy kengash vujudga keldi. Ushbu Oliy kengash Olloqulixon davrida ham faoliyat ko'rsatgan va uning tarkibiga mehtar, qushbegi, naqib, shayhulislom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, shig'ovul, dasturxonchi, arbob, miroxur, to'shakchi, oqo-og'o va hakazo mansab va unvon egalari kirganlar. Xon biror bir qaror chiqarishdan oldin, doim kengash chaqirgan. Kengashga mehtar, qushbegi, naqib, shayhulislom, devonbegi kabi nufuzli kishilar qatnashishgan. Bu tor doiradagi yashirin kengashning qarori xonning qaroridek ko'rsatilsada, lekin amalda bu kengash yuqori qonun chiqaruvchi, ma'muriy va sud hokimiyati edi. Kengash ana shu kishilar ishtirokida xonlikning ichki ishlariga oid masalalarda qaror qabul qilardi va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan tashqi munosabatlariga doir masalalarni hal etardi. Buni o'sha davrda Xivaga kelgan ajnabiy elchilarning yozib qoldirgan ko'pgina xotiralar tasdiqlaydi. Bu elchilarning hammasini xon, qoida bo'yicha, yuqorida aytilgan shaxslar ishtirokida rasmiy ravishda qabul qilardi. Oliy kengash rasmiy davlat ishlari bilan ham shug'ullanardi. Bu kengash har xaftada juma kuni ko'rinish xonada to'plangan.

Muzokaralar boshlanishi oldidan mulozimlar hozir bo'lganlarga osh tortgan va mehmondorchilikdan keyin maslahat boshlangan.

Yuqorida bayon etilgan "Oliy kengash Xiva xonligida yagona grajdanlik va jinoiy ishlar sudi hisoblanadi" – deb yozadi N.Muravev bu kengashning faoliyati to'g'risida. Xonning maslahatchilari bo'lgan oqsoqollar saroyda har kuni to'planishgan. Oqsoqollar ma'lum bir fikrga kelganlaridan keyingina ularning qarorini mehtar xonga bildirgan. Kengash majlisi qarornoma tuzmagan, mustaqil qarorlar chiqarmagan. Kengash davlatning turli tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qilgach, muhokama qilingan masalalar va kengashning fikri mehtar orqali xonga bildirilgan. Xon poytaxtga kelgan mahalda, hozir bo'lganlar bomdod namozidan chiqqan xonni qutlamoq uchun har kuni ertalabdan saroyga yig'ilishlari lozim edi.

Hukmdorning saroydagi ishongan kishilari mahramlar bo'lishgan. Ular xazinadan katta miqdorda maosh, sarpolar olib turishardi. Ba'zida mahramlar xon hazratlari o'rniga muhr bosish vakolatiga ham ega edilar. Garchi mahramning devonbegi yoki yasovulboshi singari son-sanoqsiz

navkarlari bo'lganida, u bevosita xon bilan muomila qilgan. Mahramlar kuni bilan xon yonida bo'lgani tufayli davlatni boshqarish ishiga ham ta'sir o'tkaza olishardi.

Mahramlar kimnidir yomon ko'rib qolishsa yoki shaxsiy kelishmovchilik bo'lsa oqni qora desalar, yaxshi inson ham yomonotliq bo'lib ketaverardi. chunki, xon ularga ishongan. Odatda, xon qabulxonasi hisoblangan ko'rinishxonada hukmdor og'zaki farmoyish berar, buyruqni bajarishni mahram e'lon qilardi. Faqat biror kishini mansabga tayinlash, yer berish, elchilikka oid farmoyishlarga yozma ravishda berilardi. Xon chiqargan boshqa har qanday amru farmoni mahram og'zaki aytar, bajarilishini nazorat qilardi. Shuningdek, yozma farmoyishlarga xon imzo chekmas, faqat muhr bosilardi. Bu ishni ham tabiiyki ishongan odami-mahram bajarardi.

Xiva xonligi arxiv hujjatlariga ko'ra, mahramlar xonning oromxonasiga kirish huquqigayam ega bo'lishgan. O'nta mahramga boshliq kishini mahram dahboshi, ellik mahramga rahbarlik qiluvchini panjo sadboshi, deya ataganlar. Oftobachi, sharbatbardor, bo'xchabardor, soatbardor singari saroy xizmatkorlarini mahram sanalgan. Tarixi manbalar va hujjatlarga ko'ra, "saroy xizmatchilari va xizmatkorlarning hammasi poyanda mahram deb atalardi". Xiva xonligi arxiv hujjatlarida 19 asrning o'rtalarida mahramlarning xazinadan besh-o'n tillo miqdorida maosh, sarpolar olib turishgani qayd etilgan. Xonlik arxiviga oid hujjatda "1281 (milodiy 1865) yili Gandumkonda turuvchi Pahlavon Niyoz jarchiga 4 yaxlit tillo berildi". 1288 (1870) yili rajab oyida Pahlavon jarchiga 5 tilla berildi", deyilgan. Jarchi ham xon saroyidagi mahramlar qatorida sanalardi.

Xon uchun zarur bo'lgan buyumlarni ham mahramlar olib turishgan. Arxiv manbalarida "Xon hazratlari uchun Pahlavon mahramga to'rt yumaloq choy va bir botmon tamaki berildi, narxi 11 tilla", deyiladi. Mahramlar ba'zida hokim darajasiga ko'tarilgan. Masalan, 19 asr o'rtalarida Abdulla mahram hokim qilib tayinlangan edi.

1863 yilda Xorazmga kelgan Herman Vamberi mahram haqida shunday yozgan edi: "xonning shon-shavkat alomati bo'lgan bir talay xizmatkor va malaylar unga xizmat qiladilar. Mahram ana shulardan biri. Uning vazifasi xonning shaxsiy mulozimiga o'xshasada, aslida maxfiy kengashchidir. Mahram saroy hayotidan tashqari davlat ishlariga ham aralashadi va xon oldida ta'siri ham zo'r".

Mehtar va qushbegi kun bo'yi mahkamalarida hozir bo'lib, o'z taxti idoralari ostidagi mahkamalardan kelgan ishlarni qabul qiladilar, xon tomonidan beriladigan, barcha farmoyishlar darhol shu joydan tarqatiladi. Xon hokimiyati o'z faoliyatida, bir tomondan ko'p sonli o'rta yer egalari va ularning vakili bo'lgan oqsoqollarning Oliy kengashiga suyanardi. Xon saroyida o'tkaziladigan marosimlar o'zining qat'iyligi va mustahkamligi bilan xonlikning hamma joyida tartib hukm surishi va hamda a'yonlarning mansab va darajalariga qarab hurmat qilishini yana bir karra ko'rsatadi. O'sha zamonda saroyda mavjud bo'lgan marosimlar diqqatga sazovordir, chunki

ular Xiva xonligida idora usulini ochiq oydin ko'rsatib berardi.

Elchilar qabul qilish marosimida yoki boshqa muhim marakada mansabdor ayonlar va unvon egalari ravoqda quyidagi tartibda joylashadilar: uzun ravoqning kun yurish tomonidagi devor o'rtasida xon o'tiradi. Xonning chap tomonida esa ayon va sarkardalar: naqib, amirulumaro, bosh inoq, ikki mutavvali, xonning sayidlaridan bo'lgan urug'lari, shayhulislom, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt biy, to'rt mirob, uch darg'a, uch arbob, ikki oqo va uch savdogar boy o'tiradi. Savdogarlardan ikkitasi Yangi Urganchdan, bittasi Xonqadan. Xonning o'ng tomonida, devor bo'yida tartib bilan ulamolar: qozi kalon, qozi askar, a'lam, mufti, so'ngra ilgariroq yorliq olganlar va nihoyat mudarrislar o'tirardi.

Hozir bo'lganlar birinchisidan beshinchisigacha, beshinchidan yettinchisigacha yoki yettinchisidan o'n uchinchisigacha tantanali marosimlar vaqtida amaliga qarab tartib bilan o'tirishga haqlidir, bular "o'rinishli" deb ataladi. Boshqalar biror farmoyish kutib, xon ro'parasida uzoqroqda ta'zim bilan oyoqqa bosib turadi. Xonning ro'parasida turuvchi va o'tiradigan tayinlik o'rni bo'lmagan shaxslarni umuman "o'rindor oqsoqollar" deb aytiladi. Mansabdor, ulamo, shuningdek, sarkarda hamda turli ayonlarni xon atrofida ma'lum tartib bilan o'tirg'izish juda qadimdan davom etib kelgan.

V.V.Bartold o'zining "XVII asrda o'zbek xonlari marosimlari" degan kitobida shunday bayon qiladi: "Marosimlar vaqtida saroy amaldorlari har qaysisi o'zining unvon va martabasiga qarab ma'lum joyni egallab o'tirardi. Taxtning so'l tomonidagi o'rin faxriyroq hisoblanardi. "Chunki o'zbek xalqida yurak chap tomonda, degan gap bor", shu sababdan so'l tomonga o'ng tomondan ko'proq ahamiyat berilgan. So'l tomonda birinchi bo'lib naqib o'tirar, so'ngra esa tartib bilan urug' vakillari, urug' otaliqlar va hakazolar o'tirishardi. O'ng tomonda esa birinchi faxriy o'rinda shayxulislom, so'ngra qozi kalon, qozi askar va hakazolar o'tirishardi". Xiva xonligining ma'muriy apparati-moliya-soliq boshqarmasi mukammal bir boshqarma bo'lib, birinchi o'rinda turishi bu davlat uchun xarakterli edi. Shu sababdan bu boshqarma tepasida turuvchi amaldorlar ham davlatda birinchi o'rinda turar edilar. Moliya va soliq boshqarmasiga uch kishi: mehtar, qushbegi va devonbegi boshchilik qilar edi.

Tarixiy xujjatlarning guvohlik berishicha, xonlikda mehtar xondan keyin ikkinchi shaxs bo'lgan. Masalan, N.Muravev mehtarning vazifasini shunday tushuntiradi: "Xon xazinasini mehtarning ixtiyorida bo'lib, daromadni hisobga olib boradi, ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularni boqish ham uning ixtiyorida. Xon Xivadan safar qilgan mahalida xonlikni boshqarishni unga topshirib ketadi".

Ma'lum bo'lishicha, Xiva xonligining Olloqulixon davrida Muxammad Yusuf (1803-1839) va Muxammad Yoqub (1839-1856) lar mehtarlik lavozimida faoliyat ko'rsatganlar.

Ingliz elchisi Abbotning ma'lumotiga ko'ra, mehtarning mustaqil ravishda muzokara olib

borish huquqi ham bo'lgan.

Xon biror muhim qaror chiqarishdan oldin, doim kengash chaqirgan. Kengashga mehtar, qushbegi, naqib, shayqulislom, devonbegi kabi nufuzli kishilar qatnashgan. Bu tor doiradagi yashirin kengashning qarori xonning qaroridek ko'rsatilsa-da, lekin amalda bu kengash yuqori qonun chiqaruvchi, ma'muriy va sud hokimiyati edi. Kengash ana shu kishilar ishtirokida xonlikning ichki ishlariga oid masalalarda qaror qabul qilardi va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan tashqi munosabatlariga doir masalalarni hal etardi. Buni o'sha davrda Xivaga kelgan ajnabiy elchilarning yozib qoldirgan ko'pgina xotiralari tasdiqlaydi. Bu elchilarning hammasini xon, qoida bo'yicha, yuqorida aytilgan shaxslar ishtirokida rasmiy ravishda qabul qilardi. Oliy kengash rasmiy davlat ishlari bilan ham shug'ullanardi. Ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo'lgan urug' oqsoqollari kengashi o'rniga, Muhammad Rahimxon Davrida Oliy kengash vujudga keldi. Bu to'g'risida N.Muravev quyidagicha yozadi: "Muhammad Rahimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Oliy kengash ta'sis etdi. Bu kengashga turli da'vo va jinoiy ishlarni ko'rish va qaror chiqarish huquqini berdi, to'g'rirog'i amr qildi" va tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha Oliy kengash tarkibida xonning qarindosh- urug'laridan tashqari oqsoqollar ham bo'lishligi tufayli uning ixtiyori cheklangan bo'lgan. Bu kengash har haftada juma kuni ko'rinish xonada to'plangan. Muzokoralar boshlanish oldidan mulozimlar hozir bo'lganlarga osh tortgan va mehmondorchilikdan keyin maslahat boshlangan.

Yuqorida bayon etilgan Oliy kengash Xiva xonligida yagona fuqarolik va jinoiy ishlar sudi hisoblanadi", - deb yozadi N.Muravev bu kengashning faoliyati to'g'risida.

Xonning maslahatchilari bo'lgan oqsoqollar saroyda har kun to'planishgan. Oqsoqollar ma'lum bir fikrga kelganlaridan keyingina ularning qarorini mehtar xonga bildirgan.

Kengash majlisi qarornoma tuzmagan, mustaqil qarorlar chiqarmagan. Kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qilgach, muhokama qilingan masalalar va kengashning fikri mehtar orqali xonga bildirilgan.

Xon poytaxtga kelgan mahalda, hozir bo'lganlar bomdod namozidan chiqqan xonni qutlamoq uchun har kuni ertalab saroyga yig'ilishlari lozim edi.

Mehtar va qushbegi kun bo'yi mahkamalarida hozir bo'lib, o'z taxti idoralari ostidagi mahkamalardan kelgan ishlarni qabul qiladilar, xon tomonidan beriladigan barcha farmoyishlar darhol shu joydan tarqatiladi.

Xon hokimiyati o'z faoliyatida, bir tomondan ko'p sonli o'rta yer egalariga va ularning vakili bo'lgan oqsoqollarning Oliy kengashiga suyanardi.

Xon saroyida o'tkaziladigan marosimlar o'zining qat'iyligi va mustahkamligi bilan xonlikning hamma joyida tartib hukm surishi va hamda a'yonlarning mansab va darajalariga qarab hurmat qilinishini yana bir karra ko'rsatadi.

O'sha zamonda saroyda mavjud bo'lgan marosimlar diqqatga sazovordir, chunki ular Xiva xonligidagi idora usulini ochchq-oydin ko'rsatib berardi.

Elchilar qabul qilish marosimida yoki boshqa muhim ma'rakada mansabdor a'yonlar va unvon egalari ravoqda quyidagi tartibda joylashadilar: uzun ravoqning kun yurish tomonidagi devor o'rtasida xon o'tiradi. Xonning chap tomoni esa a'yon va sarkardalar: naqib, amirulumaro, bosh inoq, ikki mutavvali, xonning sayidlaridan bo'lgan urug'lari, shayxulislom, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt biy, to'rt mirob, uch darg'a, uch arbob, ikki oqo va uch savdogar boy o'tiradi. Savdogarlardan ikkitasi Yangi Urganchdan, bittasi Xonqadan. Xonning o'ng tomonida, devor bo'yida tartib bilan ulamolalar: qozi kalon, qozi askar, a'lam, mufti, so'ngra ilgariroq yorliq olganlar va nihoyat mudarrislar o'tiradi.

Hozir bo'lganlar birinchisidan beshinchisigacha, beshinchidan yettinchisigacha yoki yettinchisidan o'n uchinchisigacha tantanali marosimlar vaqtida amaliga qarab tartib bilan o'tirishga haqlidir, bular "o'rinishli" deb ataladi. Boshqalar biror farmoyish kutib, xon ro'parasida uzoqroqda ta'zim bilan oyoqqa bosib turadi. Xonning ro'parasida turuvchi va o'tiradigan tayinlik o'rni bo'lmagan shaxslarni umuman "o'rindor oqsoqollar" deb aytiladi.

Mansabdor, ulamo, shuningdek, sarkarda hamda turli a'yonlarni xon atrofida ma'lum tartib bilan o'tirg'izish juda qadimdan davom etib kelgan.

V.V.Bartold o'zining "XVII asrda o'zbek xonlari marosimlari" degan kitobida shunday bayon qiladi: "Marosimlar vaqtida saroy amaldorlari har qaysisi o'zining unvon va martabasiga qarab ma'lum joyni egallab o'tirardi.

Taxtning so'l tomonidagi o'rin faxriyroq hisoblanardi. "Chunki o'zbek xalqida yurak chap tomonda, degan gap bor", shu sababdan so'l tomonga o'ng tomondan ko'proq ahamiyat berilgan.

So'l tomonda birinchi bo'lib naqib o'tirar, so'ngra esa tartib bilan urug' vakillari, urug' otaliqlar va hokazolar o'tirishardi. O'ng tomonda esa birinchi faxriy o'rinda shayxulislom. so'ngra qozi kalon, qozi askar va hokazolar o'tirishardi".

XIX asrda turli mansab va unvon egalarini, ularning jamiyatda tutgan mavqeiga qarab, joy-joyiga o'tirg'izish marosimi V.V.Bartold tasvir qilgan XVII asr marosimiga qaraganda birmuncha boshqacharoqdir.

Ma'lum bo'lishicha, tarixiy sharoitda bu marosimga yangi voqe'liklar paydo bo'lishi, siyosat maydonida kuchlar nisbatining o'zgarishi natijasida vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar kiritilib turgan. Birinchidan, Xiva xonidan boshpana izlab kelgan qozoq xoni yoki ajnabiy shahzodalar xon yonidan joy oladigan bo'ldilar.

Ikkinchidan, "o'tmish davrda, - deb yozadi V.V.Bartold, - o'qimishli va umuman fuqarodan kishining roli harbiy tabaqa hamda ulamolarga qaraganda shu qadar past ediki, tantanali marosimlarda bosh a'yonlar, vazir (keyinroq mehtar deb atalgan) va qushbegilar oyoqda tik



turishlari lozim bo'lgan, xolbuki harbiy vazifadagilar va ulamolar o'tirganlar". XIX asrda esa ma'muriy-mansabdor kishilarning roli shu qadar ortdiki mehtar, qushbegi, devonbegi, yasovulboshi va shu kabi a'yonlar xonga yaqin yerdan joy oldilar, lekin ular o'tirmas edilar. Biroq ularning xon yonidan joy olishlari jamiyatda tutgan mavqelaridan emas, balki xon hokimiyatining obro'yi oshganligidan edi. Bunda shu a'yonlarning o'zlari ham katta rol o'ynaganlar.

Xiva xonligining ma'muriy apparati - moliya-soliq boshqarmasi mukammal bir boshqarma bo'lib, birinchi o'rinda turishi bu davlat uchun xarakterli edi. Shu sababdan bu boshqarma tepasida turuvchi amaldorlar ham davlatda birinchi o'rinda turar edilar. Moliya-soliq boshqarmasiga uch kishi: mehtar, qushbegi va devonbegi boshchilik qilar edi.

Tarixiy xujjatlarning guvohlik berishicha, xonlikda mehtar xondan keyin ikkinchi shaxs bo'lgan. Masalan, N.Muravev mehtarning vazifasini shunday tushuntiradi: "Xon xazinasi mehtarning ixtiyorida bo'lib, daromad-buromadni hisobga olib boradi, ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularni boqish ham uning ixtiyorida. Xon Xivadan safar qilgan mahalida xonlikni boshqarishni unga topshirib ketadi".

Manbalarda keltirilishicha qadimda xon hazratlarining yaqinlashayotganini, saroydan chiqqani va unga qaytayotganini karnay –surnay ovozidan bilib olishardi. Zero, Xiva xonligida xon safarga chiqqanida surnaychi va karnaychi hamisha mulozimlar qatorida yurishi shart bo'lgan. Agar xon biror beklikka, ziyorat yoki qandaydir marosim, to'y-ma'rakaga borarkan, belgilangan manzilgacha safarga tantanali tus berilardi. Eng oldinda janda kiygan 10-12 nafar qalandar piyoda ketib borardi. Ular hukmdorni maqtab, madh aytib ketishgan. Bu xizmatlari uchun esa o'sha qalandarlarga to'rt-besh tillo maosh berishardi. Xonning o'zini esa tansoqchilari bo'lgan qizil to'nli, qo'ng'iroqli kamar bog'lagan shotirlar kuzatib, ehtiyotlab borishardi. Saroyda o'n shotir bo'lib, to'rttasi xon otining jilovini galma-gal ushlab yurar, ikkitasi esa ikki yondan uzangini ushlab borgan. Bu faoliyatlari uchun xazinadan shotirlarning ikkitasi sakkiz tillodan, qolganlari besh tillodan maosh olishardi.

Shotirlar-ku, o'z vazifasini bajarib, jim ketib borishardi. Udaychi va jarchilar esa doimo baqirib-chaqirib yurar, bu ishi uchun udaychi 15-20 tillo, jarchi besh tillo maosh bilan siylangan. Ular xon yonida ortiqcha baqir-chaqir qilmas, xon xaloyiqning oldiga chiqqan paytdagina udaychi o'z hukmdori ovozini ayab, uning o'rniga xalqni qutlardi. Udaychilardan biri xon o'rniga "assalomu alaykum" deb xalqqa salom bersa, boshqa hamkasbi esa xon uchun xaloyiq javobiga "va alaykum assalom!" deb qo'yardi. Jarchilar esa xon kelayotganida qichqirib, xalqni ogoh qilib borishar, shuningdek, yangi hukmdor tayinlanganida shahar aylanib, xaloyiqqa e'lon qilardilar. Urush paytlarida ular xon bilan ayrim harbiy qismlar o'rtasida aloqachilik vazifasiniyam uddalashgan.

Xiva xonligi arxiv ma'lumotlariga ko'ra, xon safarga, shikorga, hatto, urushga borganida ham to'qqiz surnaychi va olti karnaychi unga hamroh bo'lgan. Surnaychi va karnaychiga besh tilldan maosh ajratish bilan birga xon hazratlari don ham bergan. Xiva xonligi arxiviga tegishli 36 –daftarning 14-varag'ida 1850-51 yillarda 5 surnaychi va 5 karnaychiga to'rt yuz botmon tariq va ikki yuz botmon makkajo'xori berilgani qayd etilgan.

Xiva xonligi saroyida turli darajadagi mulozimlar ko'p bo'lib, ular xalqning mashaqqatli mehnati evaziga to'plangan xazinadagi pullardan, baqirganiyu, chaqirgani, karnay-surnay chalgani uchun maosh olishardi.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, elchilar qabul qilish marosimida yoki boshqa muhim marakada mansabdor ayonlar va unvon egalari ravoqda quyidagi tartibda joylashadilar: uzun ravoqning kun yurish tomonidagi devor o'rtasida xon o'tiradi. Xonning chap tomonida esa ayon va sarkardalar: naqib, amirulumaro, bosh inoq, ikki mutavvali, xonning sayidlaridan bo'lgan urug'lari, shayhulislom, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt biy, to'rt mirob, uch darg'a, uch arbob, ikki oqo va uch savdogar boy o'tiradi. Savdogarlardan ikkitasi Yangi Urganchdan, bittasi Xonqadan. Xonning o'ng tomonida, devor bo'yida tartib bilan ulamolar: qozi kalon, qozi askar, a'lam, mufti, so'ngra ilgariroq yorliq olganlar va nihoyat mudarrislar o'tirardi.

XIX asrning birinchi choragi Xiva xonligi tarixida muhim o'zgarishlar davri bo'ldi. Xiva xoni Muhammadrahimxon o'tkazgan islohotlar tufayli davlat hokimiyati markazlashdi. Ma'muriy boshqarishning ancha takomillashgan tizimi qaror topdi, xonlikning iqtisodiy va harbiy qudrati mustahkamlandi. Lekin bu jarayon uzoqqa bormadi. 1873 yilda Xiva xonligi ham O'rta Osiyoning boshqa xonliklari qatori, chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Xiva xonligi chorizmning sof mustamlakasi bo'lib qoldi. Xonning butun faoliyati Rossiya hukumati nazorati ostiga o'tdi. Xonning muntazam harbiy qo'shinlari tarqatib yuborildi. Xivada maxsus rus qo'shinlari saqlandi. Xonlikning moliyaviy ishlari, soliq tizimi va xazinasi rus harbiylari nazorati ostiga olindi. Oliy Kengash ishida ham rus ofitserlari qatnashadigan bo'ldi. Hukumat lavozimlariga ham ular ma'qullagan amaldorlarga tayinlangan. Xiva xoni davlatni idora qilishda o'z mustaqilligidan batamom mahrum bo'lgan edi.

Shu kabi mulohazalarga tayanib va o'nlab mahalliy tarixchilarning XIX asrda bitilgan tarixiy asarlarining ma'lumotlari asosida bizni qiziqtirayotgan masalalarni yoritish yo'li bugunga kelib ochildi. Xonlikda saroy-qabul marosimlariga oid ma'lumotlar talaygina, ammo ulardagi muhim ma'lumotlar ilmiy izlanishlar doirasiga to'liq jalb etilmagan. Afsuslar bo'lsinki, bu ma'lumotlar tarqoq va parishon holatda haligacha qolib ketmoqda. Shu hisobga olgan holda ishimizda tarqoq ma'lumotlarni umumlashtirish va taqqoslashga harkat qildik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гулямов Я. История орошения Хорезма. – С.199-202
2. Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар // Қўлёзма, ЎзФАШИ. – №9320.  
А.Болтаевнинг маъълумотларига кўра, Асфандиёрхон замонида хонликда куйидаги бекликлар бўлган: Ҳазорасп - ҳоким Исмоилхўжа Исломжоннинг акаси, Остона - ҳоким шайх ул-ислом, Урганч - ҳоким Оллоберганбий, Кот - ҳоким Абдулла иноқ, Тошцовуз - ҳоким Жуманиёз маҳрам, Қўшқўприк - ҳоким каттаговул, Оқдарбанд -ҳоким Ниёз маҳрам, Гурлан - ҳоким Муҳаммад Шарифбой, Кўк Қашқа - ҳоким, Қўнғирот - ҳоким Қутлимуродбой, Кўҳна Урганч - ҳоким Нурмуҳаммад девон, Илонли - ҳоким Бобо девон, Тахта - ҳоким, Хонқа - ҳоким Муҳаммадхўжа Шожибой, Шоббоз - ҳоким Бектош оталиқ, Маноқ - ҳоким Нуржон Баходир, Фазиобод - ҳоким юзбоши, Шайх - ҳоким юзбоши, Манғит - ҳоким Муҳаммад Ниёзбой, Хўжайли - ҳоким Ёрмуҳаммадбой, Хўжайли - ҳоким Азизбий хўжа, Чуманай - ҳоким Абдул Раҳимбой, Тўрчи - ҳоким, Оқтепа - ҳоким, Қороғон - ҳоким, Хитой - ҳоким. Яна қаранг. Сабурова С. С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Т., 2002. –Б. 92; Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бшқаруви тарихидан. - Б.63-64
3. Хива – 2500. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. –Урганч, 1997. – 65 б.
4. Сафаров Бобожон. Хоразм тарихи. ЎзР ФА шарқшунослик институти, 1-фонд, 10231-рақамли қўлёзма
5. История Узбекской ССР. Том первый. Ташкент: Фан, 1967; Ўзбекистон ССР тарихи. Иккинчи том. Тошкент, 1971; История Хорезма с древнейших времен до сегодняшнего дня. Ташкент: Фан, 1976.
6. Муравев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. Част.2 М., 1822, С.61
7. ЎзФА Шарқшунослик институти, фонд 33, п.2, Б.80.
8. ЎзФА Шарқшунослик институти, фонд 33, п.2, Б.80.
9. O'zbekiston Fanlar akademiyasi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi 9320-raqamli
10. Xiva xonlari arxivi 63-daftardagi 39-varaqda
11. ЎзФА Шарқшунослик институти, фонд 33, п.2, Б.7.
12. Бартолд В.В. Церемония узбекских ханов в XVII веке. -СПб, 1909, С.301-303
13. Аббот. Асарлар. 1-том. В.81
14. Бартольд В.В. Церемония узбекских ханов в XVII веке. –С-ПБ, 19017-С.301-303
15. Йўлдошев М. Хива хонлигида ер эгалиги ва давлат тузилиши. –Т., 1959. –Б.256-257
16. Polvonov, J. A. (2023). IRAN-KHIVA EMBASSY RELATIONS IN “RUZNOMAIY

SAFARI KHORAZM". *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(02), 07-11.

17. Polvonov, J. A. (2023). RECORDS FROM THE EMBASSY HISTORY OF THE KHIVA KHANATE (IN THE EXAMPLE OF THE KOKAN KHANATE). *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(06), 8-11.

18. Polvonov, J. (2023). Xiva xonligining boshqaruvi va ma'muriy tizimi xix asrda. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 275-279.